

## AQL VA HIKMAT UCHRASHUVI

**Shahnoza Izmurodova**

*QarDU I kurs tayanch doktoranti*

*shahnozaizmurodova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qur'oni Karimning “Kahf” surasida bayon etilgan Muso alayhissalom va Hizr alayhissalom voqeasi ilmiy-adabiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Masalaning mohiyati Qur'on, hadis va tafsir manbalari, shuningdek, tasavvufiy adabiyot va falsafiy qarashlar doirasida yoritiladi. Maqolada voqeaning zohiriy va botiniy qatlamlari, sabr, ilohiy hikmat hamda ilmning ikki turi — shariat ilmi va laduniy ilmlar o'rtasidagi tafovut muhokama etiladi. Shuningdek, Muso va Hizr qissasining tasavvufiy talqinlari Jaloliddin Rumiy, Farididdin Attor kabi mutasavviflar merosi asosida ochib beriladi. Adabiy qiyoslarda Alisher Navoiy, Rabg'uziy hamda jahon adabiyotidagi ramziy timsollar bilan bog'liqlik ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari ushbu qissaning nafaqat axloqiy, balki falsafiy va adabiy jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** Muso, Hizr, Qur'on, tafsir, hadis, tasavvuf, ilm, sabr, hikmat, adabiyot.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается событие встречи Мусы и Хидра, описанное в суре “Кахф” Корана, с научно-литературной точки зрения. Суть вопроса анализируется в контексте коранических, хадисных и тафсирийских источников, а также в суфийской литературе и философских воззрениях. Особое внимание уделяется разграничению внешнего и внутреннего знания, понятию сабра и божественной мудрости. Суфийские интерпретации эпизода освещаются на основе наследия Джалолиддина Руми, Фаридиддина Аттара. В литературных сопоставлениях рассматриваются произведения Алишера Навои, Рабгузи, а также символические параллели в мировой литературе. Полученные результаты подтверждают, что данное предание имеет исключительное значение не только в нравственном, но и в философско-литературном аспекте.

**Ключевые слова:** Муса, Хидр, Коран, тафсир, хадис, суфизм, знание, терпение, мудрость, литература.

**Abstract:** This article examines the story of Moses and Khidr as narrated in the Qur'anic chapter *al-Kahf*, through a scholarly and literary perspective. The study analyzes the event within the framework of Qur'an, Hadith, and tafsir sources, as well as Sufi literature and philosophical thought. Particular attention is given to the distinction between outward and inward knowledge, the concept of patience, and divine wisdom. Sufi interpretations are explored through the works of Jalaluddin

Rumiy, Faridduddin Attar. Comparative literary analysis includes references to Alisher Navai, Rabghuzi, and symbolic parallels in world literature. The findings confirm that this narrative holds exceptional significance not only in ethical terms but also in philosophical and literary dimensions.

**Keywords:** Moses, Khidr, Qur'an, tafsir, hadith, Sufism, knowledge, patience, wisdom, literature.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda yuksak ruhiy- ma'naviy timsol sifatida muhim o'rin egallagan siymolardan biri Muso payg'ambar obrazidir. U nafaqat Islom dinida, balki yahudiylik va nasroniylik dinlarida ham muqaddas shaxs bo'lishi bilan birga, adabiyotda zulmga qarshi kurash, imon, sabr-toqat, rahm-shafqat va xalq uchun fidoyilik ramzii sifatida gavdalanadi. Qadimgi yahudiy manbalarida **Moshe**, xristian manbalarida **Moisey** nomi bilan ma'lum. Badiiy adabiyotda Muso payg'ambar obrazida ko'p jihatlar aks ettiriladi:

Ozodlik va adolat uchun kurashchi — fir'avnga qarshi chiqib, Bani Isroilni qullikdan qutqarishi orqali u ozodlik va adolat uchun kurashchi timsoliga aylangan.

Alloh bilan bevosita muloqot qilgan inson — Tur tog'ida vahiy olgan tasvirlar orqali u ilohiy bilim va ruhiy yetuklik ramziga aylangan.

Mo'jizakor payg'ambar — Asosini ajdarho (ilon)ga aylantirishi, dengizni ikkiga bo'lishi kabi mo'jizalar orqali adabiy manbalarda sehrli-realistik obraz sifatida tasvirlanadi.

Rahbar va murabbiy — U xalqini yetaklagan, sabr bilan ularga yo'l ko'rsatgan rahbar sifatida tasvirlanadi. Bu jihatlar, ayniqsa, rivoyat va dostonlarda yaqqol ifodalanadi.

Sharq adabiyotida, xossatan, so'fiylik she'riyati va tasavvufiy hikoyatlarda **Muso** (ma'nosi mu - "suv", so - "daraxt" demakdir) alayhissalomning Alloh bilan muloqotlari, sabr-u tavozi haqida bergan saboqlari keng yoritilgan [1,157]. G'arbiy adabiyotda esa u ko'proq tarixiy-diniy qahramon sifatida eslanadi.

Hizr alyhissalom esa Qur'onda aniq ism bilan tilga olinmagan, ammo tafsirlarda va hadis rivoyatlarida "al-Khidr" yoki o'zbekcha talaffuzda "Hizr" deb keladi. "Hizr" so'zi "*yashillik, hayot, baraka*" ma'nolarini bildiradi. Ulamolarning ba'zilar uni payg'ambar, boshqalari esa solih banda yoki avliyo deb hisoblashadi. Lekin Qur'onda u haqda "Biz unga O'z huzurimizdan rahmat ato etdik va ilmu-l-ladun (ilohiy ilm) berdik" (Kahf, 65-oyat) deb marhamat qilingan.

Muso alayhissalom bilan uchrashuvi "Kahf" surasida (60–82-oyatlar) keltiriladi. U yerda Hizr Allohning maxsus ilmi bilan Musoga ko'rinishda tushunarsiz bo'lgan uch amalni qiladi: kemani teshadi, bolani o'ldiradi va devorni tuzatadi. Har uchala voqea ham oxirida chuqur hikmatga ega ekani ochiladi.

So'fiylar nazarida Hizr "botiniy ilm" va "ilohiy hikmat" timsoli, ruhiy sayohatdagi murshid ramzidir. Ko'plab tasavvufiy asarlarda (Rumi, Attor, Ibn Arabiy) u "tiriklik suvi" bilan bog'liq bo'lgan siyrat sifatida talqin qilinadi.

Hizr alayhissalom "doimo hayot bo'lgan solih banda" sifatida tilga olinadi. Ayrim rivoyatlarga ko'ra, u zamon oxirigacha yashaydi, muhtojlarga yordam beradi va safarlarda yo'lovchilarga yo'l ko'rsatadi. Shu bois o'zbek xalq orasida ham "Hizrday yordamchi" iborasi keng tarqalgan.

**Asosiy qism.** Payg'ambar Muso obrazi bilan bog'liq bir qancha hikoya va rivoyatlar ilm ahllari tomonidan tahlil va tadqiq etilgan. Ammo bu kabi rivoyat va qissalar ichida **Hizr** (ma'nosi "yashil" demakdir) alayhissalom va Muso payg'ambar haqidagi hodisa anchayin diqqatga sazovordir[1,206]. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'oni Karim"da bu voqeaning naql qilinishi esa shu haqidagi qissa va rivoyatlarning pozitsiyasini yanada oshiradi.

Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy qalamiga mansub "Qissasi Rabg'uziy" asarining "Qorun qissasi" bobida ham Muso alayhissalom va Hizr alayhissalom bilan bog'liq hikoya keltirib o'tiladi. "Hazrat |Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi" — deb boshlanadigan bu hikoya Muso payg'ambarning o'zlaridan-da olimroq bandani ko'rishni istab, Alloh taologa nido qilishlari bilan aloqador bo'lgan hodisa bilan sahnaga chiqadi[1,185].

Muso (a.s.) Qur'onda eng ko'p zikr etilgan payg'ambarlardan biridir. Uning Hizr (a.s.) bilan uchrashuvi "*Kahf*" surasida bayon qilingan bo'lib, bu voqea sabr, ilohiy ilm va inson aqlining chegaralari masalalarini chuqur falsafiy nuqtai nazardan yoritadi. Ushbu qissa musulmon tafakkurida "ilmi laduniy", ya'ni Alloh tomonidan bevosita beriladigan ilohiy ma'rifat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

"Kahf" surasida Muso (a.s.) ilmini oshirish uchun Allohning bir bandasi — "Hizr" (ism aniq zikr qilinmagan) bilan uchrashadi. Bu uchrashuvda uchta hodisa sodir bo'ladi:

Kemani teshish. Hizr kambag'al dengizchilarni zulmkor podshohdan asrash maqsadida ularning kemalariga zarar yetkazadi. Muso esa dastlab bu ishni yomonlik sifatida qabul qiladi. Zohiran bu amal kambag'al dengizchilarning tirikchilik vositasini nobud qilishdek tuyulgan. Ammo Hizr bu ishni ularning manfaatini himoya qilish uchun bajargan edi. Tafsirlarda bayon etilishicha, zulmkor podshoh sog'-salomat kemalarning barchasini musodara qilib olgan. Shikastlangan kema esa uning diqqatini tortmaydi va shu sababli kambag'al kema egalari o'zining hayotiy vositasidan ayrilmaydi.

Bu voqea Qur'onda inson hayotida ayrim ko'rilgan "zarar" aslida kelajakdagi kattaroq ofatdan saqlovchi hikmat ekanini anglatadi.

Bir bola o'ldirilishi. Hizr kelgusida ota-onasini kufr va isyon sari yetaklashi ehtimoli bo'lgan bolaning hayotiga nuqta qo'yadi. Muso buni ham adolatsizlik sifatida qabul

qiladi. Zohiran begunoh bolani o'ldirish eng katta adolatsizlik sifatida ko'rinadi. Muso payg'ambar ham bu amalni qabul qila olmadi. Biroq Hizr bayon qilganidek, bu bola ulg'aygach ota-onasini kufrga, isyon va osiylikka yetaklashi taqdir qilingan edi. Allohning rahmati ila, bolaning o'limi ota-onasini kelajakdagi og'ir sinovlardan saqladi. O'rniga ularga solih va Allohga itoatkor farzand ato qilinishi va'da qilindi.

Bu voqea Qur'onda ilohiy taqdir va hikmat inson idroki bilan to'liq qamrab olinmasligini ko'rsatadi.

Devorni to'g'rilash. Hizr, mehmondo'stlik ko'rsatmagan bir qishloqda ikki yetim bolaning xazinasini saqlab qolish uchun devorni tuzatadi. Bu esa Muso uchun tushunarsiz bo'ladi. Hizr mehmondo'stlik ko'rsatmagan qishloqda ikki yetimning devorini ta'mirladi. Zohiriy qarashda bu amal "nohaq qilingan mehnat"dek tuyuldi. Aslida esa devor ostida ularning ota-bobosi qoldirgan xazina bor edi. Devorning buzilishi yetimlarning molini yomon niyatli kishilar talon-toroj qilishiga sabab bo'lardi.

Ushbu amal Allohning yetimlarga bo'lgan mehrini va ota-onaning solihligi farzandlar hayotiga baraka keltirishini ifodalaydi.

Muso (a.s.) avvalida bularning hikmatini tushunmay qarshilik bildiradi. Hizr esa sabrning zarurligini ta'kidlaydi va oxirida har bir ishning ilohiy hikmati borligini aytadi. Safarning yakunida Hizr sodir bo'lgan barcha hodisalarning asl ma'nosini ochib beradi. Shu tariqa voqea Qur'oni Karimda "ilmi laduniy" (ya'ni Alloh tomonidan maxsus ato etilgan botiniy ilm) tushunchasi bilan uzviy bog'lanadi. Muso zohiriy shariat ilmining timsoli sifatida, Hizr esa Allohning maxsus ilhomi va hikmatini anglatuvchi obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu rivoyat Qur'oni Karimdagi ilmiy va ma'naviy tafakkur masalalarini chuqur talqin qilishga asos bo'lgan. Shu bilan birga, u tafsir, hadis, kalom va tasavvuf adabiyotida ilohiy hikmat, sabr-toqat, hamda zohiriy va botiniy ilmlar orasidagi muvozanatni tushuntiruvchi ramziy manba sifatida keng qo'llanilgan.

**Xulosa.** Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlarida Rasululloh (s.a.v.) bu voqeani tafsilotlari bilan bayon qilganlar. Unga ko'ra, Muso (a.s.) o'zini eng bilimdon deb hisoblaganida, Alloh uni "Bizning bir bandamiz bor, u sendan ko'proq bilimga ega" deb, Hizrga yo'llagan. Bu hadis ilohiy ilmlar va insoniy tajriba o'rtasidagi chegaralarni belgilaydi.

Jaloliddin Rumi "Masnaviy Ma'naviy" asarida Muso va Hizr uchrashuvini murshid-shogird munosabatining timsoli sifatida talqin qiladi. Rumiya ko'ra, inson aqli (Muso) ko'p narsani idrok eta olmaydi, qalb va ruh esa (Hizr) sirlarni ochib beradi.

Fariduddin Attorning "Mantiqu-t-tayr"ida bu qissa ramziy tarzda "komil murshid"ga ergashish zarurligi sifatida talqin qilinadi.

"Nasoimu-l-muhabbat" va "Lisonu-t-tayr" asarlarida Navoiy bu qissadan sabr, murshidga bo'ysunish, va Alloh hikmatlarini qabul qilish saboqlarini chiqaradi.

Muso (a.s.) va Hizr (a.s.) uchrashuvi nafaqat Qur'on tafsirida, balki butun dunyo adabiy va falsafiy merosida "murshid–shogird", "ilm–ma'rifat", "sabr–hikmat" kabi yuksak tushunchalarning manbai bo'lib xizmat qilgan. Bu qissa islom tafakkuri, tasavvuf adabiyoti va zamonaviy madaniyatlar o'rtasida umumiy gumanistik qadriyatlarni namoyon etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy/ (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: Baxtiyor Abdushukurov). Yoshlar nashriyot uyi.2018.
2. Muhammad Ali Sabuniy. Anbiyolar qissasi Payg'ambarlar tarixi.Toskkent: "Matbaachi", 2022.
3. Alisher Navoiy/ (Hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil qilib, nashrga tayyorlovchilar: Abdumurod Tilavov, Ibrohimjon Saydullayev). Tarixi anbiyo va hukamo. Toshkent. "Faktor press", 2023
4. Abul Hasan an-Nadviy. Payg'ambarlar tarixi. Toshkent."Credo print Group" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
5. Sog'unliy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. – T.: Movarounnahr, 1997.
6. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san'at,1991.
7. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. T: "Toshkent islom universiteti"